
KUN XABARI: TUMAN HOKIMI HUDUDLARDA



Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev bugun hududlardagi fermer xo'jaliklarida bo'lib, joriy hosili uchun chigit ekilishi rejalashtirilgan maydonlarda chigit ekish hamda g'alla maydonlarida olib borilayotgan bahorgi oziqlantirish va sug'orish jarayoni bilan tanishdi.



Jumladan, tuman rahbari A.Abdullayev va viloyat hokimligi Nuroniylar kengashi a'zosi I.Ismoilovlar birgalikda "Far Shahartepa Shomirza" MMTP hududida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Sulaymonbek Yusupov" fermer xo'jaligida bo'lib, chigit ekish jarayoni hamda g'alla maydonlarida olib borilayotgan bahorgi agrotexnik tadbirlarning borishi bilan tanishdilar. Tuman hokimi tomonidan fermer xo'jaligi rahbariga tegishli ko'rsatmalar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-01 15:46:36